

**Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining o‘rni**

***Egamberdiyeva Nigora Azizovna***

*ChDPU Pedagogika fakulteti*

*Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi*

[\*nigoraazizovna1991@gmail.com\*](mailto:nigoraazizovna1991@gmail.com)

***Norova Durdon Lutfulla qizi***

*ChDPU Pedagogika fakulteti*

*Maxsus pedagogika/logopediya*

*I bosqich talabasi*

[\*Durdonanorova1@gmail.com\*](mailto:Durdonanorova1@gmail.com)

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni nutqini rivojlantirish hamdagi nutqida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etishda o‘yin faoliyatining o‘rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

***Abstract:*** This article provides information about the role and importance of play activities in the speech development of preschool children, as well as in overcoming speech deficiencies.

***Аннотация:*** В данной статье представлена информация о роли и значении игровой деятельности в развитии речи детей дошкольного возраста, а также в преодолении недостатков речи.

***Kalit so‘zlar:*** Nutq, o‘yin, didaktik o‘yin, talaffuz, xulq-atvor, taqlid, tovush, axloqiy tarbiya.

***Keywords:*** Speech, game, didactic game, pronunciation, behavior, imitation, sound, moral, education.

***Ключевые слова:*** Речь, игра, дидактическая игра, произношение, поведение, подражание, звук, мораль, воспитание.

Maktabgacha yosh bu o‘ziga xos mantiq va o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan bolaning o‘ziga xos rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davr o‘ziga xos bo‘lib bolaning o‘ziga xos xususiyatlari fikrlashlari bilan o‘ziga xos bir dunyo. O‘yin maktabgacha

yoshda yetakchi faoliyat bo'lib, aqliy va shaxsiy rivojlanish uchun eng qulay sharoit yaratadi. Bola o'yin faoliyatida u o'zi hali qanday qilishni bilmagan narsani o'rganishga intiladi. O'yin davomida bola bilim to'playdi, fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi hamda o'z ona tilisini o'zlashtiradi va albatta, muloqot qilishni o'rganadi. Asosan maktabgacha yoshidagi bolalar didaktik o'yin o'ynashadi. Didaktik o'yinlar bolaning so'z boyligini to'ldirish faollashtirishga, to'g'ri tallafuz shakllanishiga, o'z fikrlarini to'g'ri ifoda etishga yordam beradi. O'yinda bolalarning kattalar bilan munosabati katta ahamiyatga ega.

O'yin jarayonida tarbiyachi bolalar nutqini o'stiradi, narsalarning atalishi, nimalarga ishlatilishi va qanday ishlatilishi bilan ayrim belgilarini tekshiradi. Tarbiyachi bolalar o'yinini, ularning o'yin paytidagi xulq-atvorini kuzatib turishi muhim hisoblanadi. Bu pedagogning bolani yaxshi o'rganishiga uning xususiyatlarini bilib olishga faqatgina o'yinda emas balki, boshqa mashg'ulotlarda hayotda ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy vazifalarni belgilab olishga yordam beradi. O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. O'yinchoq bu narsaning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Bola o'yinchoq bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zlari orasida bo'ladigan munosabatlari, bir-biriga muomala madaniyati, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xohlashadi. O'yinchoq orqali bola sizga atrofdagilar nima demoqchi bo'lganini tushuntira bera oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi. O'yinchoq orqali bola har tomonlama nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini shakllantirib, rivojlantiradi. A.M.Gorkiyning fikricha, "o'yinchoq birinchi navbatda, bolani hayratda qoldiradi va bu tuyg'u tushunishning boshlanishi va bilimga olib boradigan yo'ldir". O'yinchoq bolaga tashqi dunyo bilan tanishishga yordam beradi, u orqali u olgan taassurotlarini mustahkamlaydi va qayta ishlaydi, faollik va muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi.

Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarga qiziq o'yinchoqlar beriladi. Bu o'yinchoqlar ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Masalan: don cho'qiydigan

chumchuq, do'mbira chalayotgan xo'roz va boshqalar. Bu materiallar bilan shug'ullanish, qo'lning mayda muskullarini, harakatlar muvofiqligini o'stirishga yordam beradi, diqqatni bir yerga to'play olishni tarbiyalaydi. Tarbiyachilar mana shunday o'yinchoqlarni bir qismini bir xil qilib qo'yishi lozim. Chunki bunday yoshdagi bola boshqa bir bolada ko'rgan o'yinchoqni o'zida bo'lishini xohlaydi. Bolalarning individual va birgalashib o'ynaydigan qonunlarida badiiy so'z, ashula aytib turishi juda foydalidir, chunki bunda bolaning ijobiy emotsional holati yanada yaxshilanadi, uning nutqi o'sadi, uncha murakkab bo'lmagan ashulalarni aytish malakasi oshadi. Misol uchun: o'yinchoq-ot ustida kichik bola o'tiribdi. Tarbiyachi kulib:

Bor mening toychog'im  
Ko'zi tiyrak munchog'im,  
Minsam sakraydi ko'kka  
Irg'ishib dikka-dikka.

kabi she'riy misralarni aytib bolani yanada kayfiyatini ko'tarib, ham so'z boyligini oshiramiz.

Bolalarning nutqini yana rivojlantirishimizda musiqaviy o'yin turlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolalarda o'yin faoliyatini ochiq havoda o'tkazishni bir qator olimlarimiz ta'kidlab o'tishgan. Bulardan: I.Yevdokimova, O.R.Kostenko va Ye.Rudovskaya yurak qon tomirlari va nafas olish tizimlari bo'yicha ochiq o'yinlar ijobiy ta'sirini ko'rsatadi deb ta'kidlab o'tishgan. O'yinlarning musiqiy qo'shiqlarning foydali sifatlari harakatlarni to'liq muvofiqlashtirishga, asab jarayonlarini muvozanatlashtiradi. Ochiq o'yinlar nutq buzilishini oldini olishga yordam beradi. Maktabgacha yoshidagi bolalar, asosan 6-7 yoshli bolalar maktabga tayyorgarligini asosiy belgilaridan biri bu nutqining ravonligi hisoblanadi.

Bolaning nutqining ravon rivojlanishida ota-onasi va tarbiyachisini ahamiyati katta. Bunda tarbiyachi bola bog'chada bo'lgan vaqtida o'yin davomida yoki boshqa mashg'ulotlar davomida noto'g'ri talaffuz qilayotgan so'zlarini tezlikda to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishi lozim. Bu holat albatta, uyda ham kuzatiladi. Bunda ota-

ona ham huddi shunday to'g'ri talaffuz qilishini ta'minlashi kerak. Agar kichik yoshli 1-3 yoshli bolalar bo'ladigan bo'lsa, bunday holatda ularning nutqi endi shakllanayotgan bo'ladi. Ular mashina o'ynayotga yoki boshqa o'yinchoq o'ynayotgan turli xil tovushlar chiqarishi mumkin. Bolalar asosan taqlid asosida tovush chiqaradi. Masalan: ko'chada jo'jalarni "chi-chi" qilib yurganini ko'rsa, bola agar jo'ja o'yinchog'ini ko'rganda yoki o'ynaganda "chi-chi" tovushini chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerak-ki, bolalarni nutqini rivojlantirishda albatta o'yin faoliyatining ahamiyati katta. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'yin faoliyatida bola o'zini hotirjam bemalol his etadi. Bola qancha erkin bo'lsa, shuncha o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortadi va o'z nutqini bemalol barchaga yetkazib bera oladi. Bola o'yin faoliyatida taqlid qilib yoki o'z-o'ziga gapirib nutqini rivojlantiradi va shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak bolajonlarimiz o'yin faoliyatida ularni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishimiz ham kerak. Buning uchun ota-onalar va tarbiyachilar bolaning o'yin faoliyatida qanday gapirayotganiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bolalarni nutqi ravon va yanada mustahkam bo'lishi uchun ularga qo'shiq, maqol, tez aytishlarni ham o'yin tarzida olib borilsa albatta, katta muvaffaqiyatga erishgan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F.U.Qodirova, I.Q.Sayfullateva "Inklyuziv va korreksion ta'limda art-texnologiyalar" T.: – 2022-y.
2. Киселева, М.В. Арт-терапия в работе с детьми: Руководство для детских психологов, педагогов, врачей и специалистов, работающих с детьми / М.В. Киселёва. – СПб.: Речь, 2006. – 160 с.
3. Миракян, Т. Песочная терапия: связь между сознательным и бессознательным / Т. И.Г. Галянт 72 № 1(6) 2019 Миракян // Здоровье детей. – М.: Издательский дом «Первое сентября», 2011. – №3. – С. 10-11.
4. Практикум по арт-терапии / Под ред. А.И. Копытина. – СПб.: Питер, 2001. – 448 с.